



Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

Prezident farmoyishiga ko'ra

Prezidentimizning joriy yil 6-martdagi "Mahallalarda tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali aholi bandlegi va daromadlarini oshirishga qaratilgan ishlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi farmoyishiga ko'ra, 2025-yil 11-martdan "dolzarb oylik" safarbarligi e'lon qilindi. Mazkur hujjat asosida viloyat hokimining ham farmoyishi qabul qilindi. Ushbu farmoyish bilan tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil qilish aholi daromadlarini oshirish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini yanada faollashtirish va asosiy kambag'al oilalarni qisqartirishda katta imkoniyat yaratiladi.

Tomorqadan YUQORI DAROMAD olish bo'yicha dolzarb oylik

natija qanday bo'ladi?

Oylik davomida viloyat hokimining tegishli o'rinbosarlari, korxonalar va tashkilotlar rahbarlari joylardagi hokim yordamchilari va mahalla bankirlari bilan birgalikda mahallalarda 2,9 mingta kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va hunarmandchilik loyihalari amalga oshirishi, zarur qishloq xo'jaligi texnikasi va asbob-uskunalarini yetkazib berishi belgilangan. Aholi xonadonlariga 101,2 ming bosh parranda, 910 ta asalari oilasi va 1,7 ming bosh qo'y-echki va qoramol yetkazib berish, 62,5 ming gektar aholi tomorqalarida hamda 22,6 ming gektar ijara yer maydonida poliz-sabzavot, kartoshka, dukkakli va boshqa sardaromad ekinlar ekish choralari ko'radi.

Tuman va shaharlarga viloyati iqtisodiyot kompleksiga kiruvchi boshqar-ma, tashkilot va tijorat bankari filiallari rahbarlari birlashtirilgan. Ularga mahalla yettilligi bilan birgalikda har bir mahallada yetakchi tadbirkorlarni birlashtirish orqali aholi tomorqalarida "Bir mahalla - bir mahsulot" hamda ijara yerlarida "Bir kontur - bir mahsulot" tamoyili asosida sardaromad ekinlar ekishni tashkillashtiradi. Mahallalarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, ariq va zovurlarni tozalash bo'yicha hashar va madaniy tadbirlar tashkil etiladi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxt ko'chatlari ekish kambag'al oilalarga ekish uchun mevali ko'chatlar yetkazib berish, mahallalarda kichik (mini) traktor va motosikllardan foydalangan holda aholi tomorqalarini ekin ekishga tayyorlash va tajribali dehqonlarni birlashtirish choralari ko'riladi. Suv ta'minoti og'ir bo'lgan 87 ta mahallani sug'orish tizimi bilan ta'minlash, kambag'al oilalar a'zolari hamda ishsiz fuqarolarga moliyaviy ko'mak ko'rsatish (ixcham issiqxona, parranda, baliq, chorva mollari, asalari qutilari, limon, xurmo va boshqa ekinlarning urug' va ko'chatlari bilan ta'minlash) choralari ko'riladi. Mahallalarda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan mikroloiyahalar amalga oshiriladi, kambag'al oilalarning og'ir kasalligi hamda nogironligi bo'lgan a'zolarining davolanishiga ko'maklashiladi, farzandlari xorijiy tillar va kasb-hunarga o'qitiladi.

Viloyatda dolzarb bir oylik safarbarligi davrida bog'dorchilik, parrandachilik, asalarichilik, chorvachilik, xizmat ko'rsatish, asbob-uskuna, hunarmandchilik, ishlab chiqarish va boshqa mikroloiyahalar uchun oliyaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 94099 million so'm kredit mablag'lari ajratilishi rejalashtirilgan.

Oliy Majlis Senatining beshinchi yalpi majlisida "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ko'rib chiqilib, ma'qullandi.

Xo'sh, bunday qonun qabul qilishga nima zarurat bor edi? Yaxshi bilamiz, keyingi paytda iqlim o'zgarishi, yilning turli fasllarida yuzaga kelayotgan tabiiy ofatlar, zararkundalar ko'payishi va bozor kon'yunkturasi-dagi o'zgarishlar qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchilar uchun moliyaviy yo'qotishlarga olib kelmoqda.

Ayniqsa, hosilga zarar yetkazuvchi tabiiy ofatlar va nobud qiluvchi kuchli yog'ing'ir, do'l, suv toshqini, dovul yoki zararkundalar ta'sirida fermer yoki tadbirkor mahsulot yetishtirish uchun qilgan xarajatlariga ham "kuyib" qolmoqda. Shu bois agrar tizimning ishlab chiqarish uzluksiz-

Hosilni do'l ursa, sug'urta puli beriladi

ligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda xatarlarni boshqarishning eng samarali usuli sug'urta ekanligi ayon bo'lib qoldi.

Sohada asosan kreditni qaytarmaslik xavfini sug'urtalash amaliyoti keng foydalanilayotgan bo'lsa-da, bunday sug'urta faqat imtiyozli kreditlarning qaytarilishiga xizmat qilib, yetishtiriladigan hosil sug'urtasiz qolib ketmoqda.

Mazkur qonunda qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urtalash bilan bog'liq barcha masalalar va to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi normalar qamrab olinadi.

Jumladan, ishlab chiqaruvchilarni turli tavakkalchiliklardan himoya qilish va barqaror daromad olishni kafolatlash uchun Qishloq xo'jaligi sug'urtasi jamg'armasi tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, sohaning sug'urtadagi yo'qotishlarini baholash, sug'urta hodalari bo'yicha yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash mustaqil ekspertlar tomonidan amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urtalashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi yaratiladi. Xususan, sug'urta mukofotining 50 foizi

ILG'ORLAR ELEKTROMOBIL UCHUN BELLASHADI



Samarqand shahrida "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida, "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etishda to'plangan ilg'or tajribalarni ommalashtirish maqsadida tashkil etilgan tanloving quyi bosqichlarida viloyatimizdan 654 nafar mahalla raisi, 1300 nafardan ortiq ko'chaboshi, 2800 nafariga yaqin xonadon egalari ishtirok etdi. Ularda har bir yo'nalish bo'yicha birinchi o'rinni qo'lga kiritgan 16 nafardan ishtirokchi viloyat tanlovida bellashdi.

— Ilgari har bir xonadon bekasi erta tongda turib, hovli va ko'chalarni

tozalari, erkaklar esa atrofini ko'kalamzorlashtirib, saranjom-sarishta qilar edi, - deydi O'zbekiston mahallalari uyushmasi raisi maslahatchisi Sobirjon Murodov. — Ammo keyingi vaqtda bu go'zal an'analarimiz bir oz unutilayotgandek. Madaniyat, ma'rifat, baraka - bularning barchasi obod joyda bo'ladi, albatta. Tanlov xalqimizning ayni qadriyatini qayta jonlantirish va yanada takomillashtirishga qaratilgan.

Ikki shart bo'yicha bellashgan ishtirokchilar orasidan "Obod xonadon" yo'nalishida birinchi o'rinni Narpay tumani O'zbekiston mahallasi, Duoba qishlog'idagi 235-xonadon egasi Hakim Rasulov egalladi. "Obod ko'cha" yo'nalishi bo'yicha Urgut tumani Ipakli mahallasi Abdulla Qahhor ko'chasi (ko'chaboshisi Asror Tursunov), "Obod mahalla"

yo'nalishida Qo'shrabot tumani Shovona mahallasi (raisi Aziz Abduvohidov) g'olib bo'ldi.

— Bizning xonadon nafaqat obodgina, balki oilamizning qo'shimcha daromad manbai hamdir, - deydi Hakim Rasulov. — 20 sotix yerdan har yili uch marta hosil olamiz. Yetishtirayotgan olti xil turdagi karamimiz, turli sabzavotlarimizning bozori chaqqon, bir yilda 100-150 million so'm daromad keltiradi. Tajribamizni o'rganish uchun boshqa tumanlardan ham odamlar kelyapti.

Ko'rik-tanlov yo'nalishlari bo'yicha barcha g'olib va sovrindorlarga tashkilotchilarning sovg'alari topshiriladi. Birinchi o'rinni qo'lga kiritganlar tanloving respublika bosqichida oliy sovrin - elektromobil uchun bellashish imkoniyatiga ega bo'ldi.

INDALLOSINI AYTGANDA...



Mirzayusup RUSTAMBOYEV, yuridik fanlar doktori, professor:

— Kelajak uchun kafolatti jamiyat qurmoqchi ekanimiz, korrupsiyani Vatanga xiyonatga, korrupsionerlarni eng ashaddiy sotqinga tenglashtirish vaqti keldi.

Senatda ko'rilgan masala

davlat tomonidan qoplab berilishi, tabiiy ofatlar va boshqa xatarlardan ko'radigan zararlarni qoplash uchun Qishloq xo'jaligi sug'urtalash jamg'armasining mablag'lari yetarli bo'lmagan taqdirda uning qolgan qismi respublika budjeti mablag'lari hisobidan qoplanishi nazarda tutilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, mazkur qonun qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining xavf-xatarlar tufayli ko'rgan zararlarni qoplashda huquqiy asos bo'ladi. Sug'urta munosabatlarini tartibga solish va nazorat qilishning yagona tizimi yaratiladi. Shu tariqa ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy barqarorligi ta'minlanib, turli xavf-xatarlarning moliyaviy ta'sirini kamaytirish imkoniyati paydo bo'ladi hamda investitsiyaviy jozibadorlik ortib, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlanadi.

Shavkat SHARIPOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

Kengash huzurida ekspert guruhi tuzildi

Xalq deputatlari viloyat Kengashining yettinchi sessiyasida 20 kishidan iborat ekspert guruhi tarkibi va guruh to'g'risida nizom tasdiqlandi.

Nizomga ko'ra, ekspert guruhining asosiy vazifasi viloyat Kengashining faoliyatini ekspertlik va axborot maslahatlari bilan ta'minlashdan iborat. Qolaversa, Kengash va uning doimiy komissiyalari faoliyatini yuksaltirish uchun yuklatilgan vazifalardan yana biri aniq va ijobiy tahlil asosida tavsiyalar berishdir.

Aniqrog'i, ekspert guruhi jamoatchilik asosida ish olib boradigan maslahat organi sifatida jamoatchilik fikrini hisobga olishga, qarorlarning aniq va to'g'ri qabul qilinishiga ko'maklashadi.

Guruhning viloyat Kengashi sessiyalari kun tartibiga kiritilgan masalalarni avvaldan ko'rib chiqish, qarorlar loyihalari ishlab chiqishda tavsiyalar berish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurash va boshqa ijtimoiy masalalar bo'yicha davlat dasturlari loyihalari tuzishda ishtirok etishi belgilangan.

Shuningdek, viloyat Kengashi, uning doimiy komis-

siyalari va deputatlarining fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini tahlil qilish va buning asosida hamkorlikni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish vazifasini ham o'z zimmasiga oladi.

Endi xalq deputatlari shahar va tuman Kengashlarida ham ekspertlik guruhlari tashkil etiladi. Aytish mumkinki, ekspert guruhlarining amaliy faoliyati Kengashlar ishini soddaga va aniq qilib tashkil qilishga ko'maklashish bo'ladi. Shu bilan birga, hududiy va davlat organlarining samarali ishlashini ta'minlash ham kutilyapti. Asosiy, deputatlarga hududiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni tushunish va yechimlar taklif qilishda yordam beradi.

Ekspert guruhlari xalqaro amaliyotlar va ilmiy-amaliy tadqiqotlardan foydalanib, hududga mos keladigan tavsiyalar ishlab chiqishi ham rejalashtirilgan. Guruh faoliyatining muvaffaqiyatida uning a'zolari orasidagi jamoa hamjihatligi va maxsus bilimlar, ekspertlar va jamoatchilik fikrlarini o'z ichiga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Musurmon BEGIMQULOV,
Xalq deputatlari viloyat Kengash kotibiyati bosh mutaxassisi.

«O'zbekiston – 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi Prezident farmoniga ko'ra, joriy yilda beshita yo'nalish orqali 286 ta amaliy chora-tadbirlar, 256 ta maqsadli ko'rsatkichlar amalga oshiriladi.

Davlat dasturi ijrosiga barchamiz mas'ulmiz

Bu maqsadlar O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi g'oyalari va maqsadlari bilan uyg'un va hamohangdir. Chunki O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi saylovoldi dasturida o'z oldiga har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratish, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhojirlarga yordam berish, kambag'allikni qisqartirish, aholini yangi ish o'rinlari bilan va kafolati daromad manbai bilan ta'minlash bo'yicha samarali siyosatni amalga oshirishni asosiy maqsad qilib belgilagan.

Davlat dasturida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim masalalar o'z aksini topgan. Jumladan, 2025/2026-o'quv yilidan boshlab, respublikaning har bir tumani (shahri)da bosqichma-bosqich inklyuziv ta'lim talablariga javob beradigan kamida bittadan umumta'lim maktabi faoliyati yo'lga qo'yiladi. "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida 3,5 ming kambag'al oila farzandlarini tayyorlab, oliy ta'lim tashkilotlariga belgilangan tartibda grant asosida o'qishga qabul qilish tashkil etiladi.

Uyda ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun qulay muhit va sharoit yaratish, o'lis va chekka hududlarda joylashgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun bepul avtobus qatnovini yo'lga qo'yish, aholi o'rtasida eng ko'p uchraydigan kasalliklarni barvaqt aniqlash va kasallanish holatlarini keskin kamaytirish, aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish, kabi masalalar partiyamiz ilgari surayotgan g'oyalari bilan mos keladi.

Bundan tashqari, 2025-yilgi Davlat dasturida mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish borasida aholi uchun barpo etilayotgan piyodalar va alohida velosiped yo'laklari bo'yida daraxtlar va o'simliklarni ekish orqali "Soyali sayr ko'chalari" tarmog'ini yaratish ko'zda tutilgan.

Atrof-muhitni asrash, yashil maydonlarni kengaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish, suv resurslarini samarali boshqarish kabi masalalar eng dolzarb yo'nalishlar sirasiga kiradi.



Shuningdek, sohil va daryo bo'ylarida 80 ta infratuzilma obyekt va 110 kilometrlik orqali sog'lomlashtirish yo'laklarini qurish maqsad qilingan. Bu kabi maqsad-vazifalar hududlarda aholi uchun qulay bo'lgan yashil maskanlarni ko'paytirish va shu orqali fuqarolarning salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish borasida "Ekofaol fuqaro" hayot tarzini keng targ'ib qilishga qaratilgan "Bir million yashil oila" umummilliy harakati yo'lga qo'yiladi.

Bir so'z bilan aytganda, "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" Davlat dasturi yashillikni kengaytirish, resurs tejamliligini ta'minlash, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash va iqtisodiy o'sishning yangi "yashil rivojlanish" modeliga o'tishda muhim dasturulamal hujjat bo'ladi, huquqiy asos vazifasini o'taydi.

Uning amaldagi ijrosini ta'minlash esa nafaqat tegishli tashkilot va mutasaddilarning, balki har birimizning vazifamiz bo'lmog'i kerak. Ana shundaygina oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishimiz mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Samarqand viloyat kengashi, uning tumani (shahar) kengashlari, partiyamizdan saylangan deputatlar tegishli hamkor tashkilotlar bilan birgalikda davlat dasturida belgilangan vazifalar mazmun-mohiyatini aholi o'rtasida keng targ'ib qiladi va davlat dasturi ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatadi.

Badriddin NASRIYEV,
XDP viloyat kengashi raisi,
viloyat Kengashi deputati.

Bahor kelib, havo harorati ham sekin-asta ko'tarilmoqda va uylarni isitishga bo'lgan ehtiyoj kamayib boryapti. Xo'sh, favqulodda vaziyatlar tizimi nazarida bu yilgi kuz-qish mavsumi qanday o'tadi? Havo va gaz aralashmasining chaqnashi yoki is gazidan zaharlanish holatlari kamaydimi? Uman, issiq kunlarda bizni yana qanday xavf kutishi mumkin? Viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi yong'inlar profilaktikasi bo'limi boshlig'i Ravshan Oblaqulov bilan suhbatimiz shu haqda bo'ldi.

— Kuz-qish mavsumi sohan-giz uchun haqiqiy sinov davri hisoblanadi...

— Har yili hukumatimizning tegishli chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, mavsumga alohida tayyorgarlik ko'riladi. Shuningdek, havo harorati pasaygan kunlari yong'inlar bilan bog'liq vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaxsiy tarkib to'liq safarbar etilgan holda iqtisodiyot, ijtimoiy soha hamda uy-joy fondi obyektlarida o'rganish, aholi bilan profilaktik tadbirlar o'tkaziladi. Jarayonda obyektlarda o'rnatilgan isitish tizimlari, ularning dudurbonlari, shamolatish kanallari, shuningdek, gaz va elektr isitish moslamalaridan foydalanishda texnika, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi o'rganib, aniqlangan muammolarni bartaraf etish choralari ko'riladi. Bu yilgi mavsum ham shu tartibda o'tdi.

Aytish joizki, bu nafaqat biz,

Issiq kunlar keldi, yong'in xavfi kamaydimi?



balki boshqa mas'ul tashkilot va idoralarning ham qo'shimcha yuklamo bilan xizmat olib borishini taqozo etadi.

Targ'ibot tadbirlari samarasi o'laroq viloyatda 2024-yilda sodir bo'lgan yong'inlar 2023-yilga nisbatan 36 taga kamaydi.

— **Yong'in faqat aholi turar joylarida sodir bo'lmayapti. Tadbirkorlik obyektlari, davlat idoralarda belgilangan xavfsizlik qoidalariga qanchalik amal qilinayotgan?**

— O'tgan 5 yillikning tahlillariga ko'ra, viloyatimiz yong'inlar statistik ma'lumotlari bo'yicha yashil hududga kirgan. Biroq bu xotirjamlikka berilish mumkin, degani emas. Birgina 2024-yilda hududda 720 ta yong'in sodir bo'lgan. Ularning 73,6 foizi aholi turar joylarida bo'lsa, qolgan 26,4 foizi boshqa obyektlarda.

Albatta, qoidabuzarlik faqat oddiy fuqarolar tomonidan sodir etilmaydi. Yuqorida tilga olingan raqamlarda tadbirkorlik subyektlari va davlat xizmatchilarining ham ulushi bor. O'tgan yili shunday korxonaga va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi Qonunga ko'ra, davlat yong'in nazorati organlari-

ning yozma ko'rsatmalari taqdim etilib, ularning 10616 tasi bartaraf etilishiga erishildi. Shuningdek, davlat obyektlarida yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etmagan 2585 nafar rahbar, javobgar shaxs va fuqarolarga 706 million 774 ming so'm miqdorida ma'muriy jarimalar qo'llanildi. Aniqlangan qoidabuzarligi zudlik bilan bartaraf etilmasligi yong'in sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan 601 ta korxonaga, bino va inshootlarning ish faoliyati vaqtinchalik to'xtatildi, 10170 ta nosoz holatda bo'lgan elektr uskuna, moslama va agregatlardan foydalanish taqiqlandi.

O'z navbatida tadbirkorlik subyektlariga qarashli obyektlarda ham yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etmagan 2015 nafar rahbar va javobgar shaxslarga 753 million 507 ming so'm miqdorida ma'muriy jarima qo'llanildi.

Aytib o'tish joizki, "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga yong'inlar profilaktikasi samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi Qonunga ko'ra, tadbirkorlik subyektlari tomonidan

yong'in xavfsizligi talablarini buzish bilan bog'liq ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish vakolati sudlardan davlat yong'in nazorati idoralarga o'tkazildi. Bundan tashqari, yong'in xavfsizligi talablarini buzganlik uchun jarima miqdorlari oshirildi.

— **Qish yakunlandi. Demak, yong'inlar xavfi ham kamaydimi?**

— Albatta, havo harorati ko'tarilgach, xonadonlarni isitish talab etilmaganligi sababli fuqarolar tomonidan turli isitish tizimlaridan foydalanilmaydi va yong'inlar sezilarli darajada kamayadi. Biroq bu yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilmaslik mumkin, degani emas. Raqamlar tilida gapiradigan bo'lsak, 2024-yilda sodir bo'lgan 978 ta yong'inning faqat 523 tasi (53,5 foizi) elektr, gaz va isitish tizimlaridan yong'in xavfsizlik qoidalariga rioya etilmasligi oqibatida yuzaga kelgan. Demak, qolgan 42 foiz noxush holat boshqa mavsumlarda yoki umuman, uylarni isitish bilan bog'liq bo'lmagan vaziyatda sodir bo'lgan.

Yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etilmasligi barcha fasllarda ham og'ir oqibatlariga olib keladi.

Asqar BAROTOV
suhbatlashdi.



BU FAKT!

Statistika boshqarmasiga ko'ra, viloyatda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,8 milliard so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 foizini) tashkil etdi.

Erganakli turizm mahallasiga aylantirilmoqda

Amir Temurning mudofaa qal'asi qayta tiklanadimi?

Bulung'ur tumanida 19 ta arxeologik, 6 ta arxitektura madaniy meros obyekti ro'yxatga olingan. Bu joylarni turizm maskaniga aylantirish ko'zda tutilgan. Jumladan, Erganakli mahallasidagi Xo'ja Hofiz Merosiy ziyoratgohi hamda Sheroz qal'a yodgorligida amaliy ishlar boshlangan.

Bu haqda tuman hokimligi tomonidan hududdagi diqqatga sazovor joylarga uyushtirilgan press-tur davomida batafsil ma'lumot berildi.

Tuman hokimining o'rinbosari Azizbek Bo'ribo'yevning ta'kidlashicha, davlatimiz rahbarining 2024-yil 29-noyabrda "Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Bulung'ur tumani Erganakli mahallasiga "turizm qishlog'i" maqomini berish belgilangan. Bugungi kunga qadar Xo'ja Hofiz Merosiy ziyoratgohiga olib boruvchi 5,5 kilometr yo'l to'liq asfaltlanib, 6,5 kilometr ichimlik suvi va 5,5 kilometr elektr tarmoqlari tortilgan.

Xo'ja Hofiz Merosiy maqbarasi Qur'oni karimni yetti qiroatda o'qigan alloma nomi bilan bog'liq, - deydi Xo'ja Hofiz Merosiy ziyoratgohi va Sheroz qal'a yodgorligi rahbari Narzulla Qoraboyev. - O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan tarixiy manbalarga ko'ra, Xo'ja Hofiz Merosiy 1475-yilda Bulung'ur tumani hududidagi Bolg'ali qishlog'ida tavallud topgan. Madrasalarda tahsil olgan va Ubaydullaxon xizmatiga kirib, bosh muftiy darajasiga ko'tarilgan. Alloma 1528-yilda Eronning Mashhad shahrida vafot etadi. Vasiyatiga ko'ra, o'limidan 6 oydan keyin Sulton Ubaydullaxon farmoni bilan jasadini Bulung'ur tumani qal'aga olib kelib, ko'milgan.

Xo'ja Hofiz Merosiy ziyoratgohidan Bolg'ali qishlog'idagi Sheroz qal'a majmuasiga o'tiladi. Amir Temur harbiy yurishlari davomida Eronni qamal qilganda ushbu qal'ani olishda qiyinaladi. Shu sabab Samarqandga kirishda mustahkam qal'a bunyod etadi va uni Sheroz deb nomlaydi. Qal'ani 20 metr chuqurlikdagi Bulung'ur arig'i o'rab turadi. Ariqning eni 18-20 metr bo'lib, tik holatda hech bir dushmaning qal'aga o'tishiga imkoniyat bermaydi. Qal'a atrofida 9 ta buloq bo'lib, 3 tasi saqlanib qolgan. Bulung'ur arig'idan ikki tomonga o'tish uchun juda mustahkam ko'priklar qurilgan. Ko'priklarning eni taxminan 12 metr bo'lib, bu



yerdan Buyuk ipak yo'li o'tgan.

Tuman hokimining qarori bilan Sheroz qal'asini qayta tiklash uchun 4 gektar maydon ajratilgan bo'lib, hozirda izlanishlar olib borilmoqda, - deydi N.Qoraboyev. - Qal'a juda mukammal qurilgan. Bu yerda Amir Temurning qarorgohi, askarlar uchun oshxona va ko'plab xonalar bo'lgan. Agar qal'a qamalda qoladigan bo'lsa, Bulung'ur arig'idan suv olish uchun yashirin yo'ldan foydalanilgan. Sheroz qal'asi tarixini to'liq o'rganish, qazish ishlari olib borish, topilgan noyob topilmalarni restavratsiya qilish, yengil konstruksiyalar bilan yopish, bu joyda qurilish infratuzilmasini yaratish maqsadida loyihasmetta hujjatlarini tayyorlangan.

Shu kungacha Sheroz qal'asiga olib boriladigan 13 kilometr yo'lga asfalt yotqizildi, 2,5 kilometr ichimlik suvi, 3,5 kilometr elektr energiyasi tarmoqlari tortilib, 29 ta yoritish chiroqlari o'rnatildi. Arxeologik qazishma vaqtida temuriy davriga xos noyob yodgorliklar topilgan yerning tom qismi yopildi. Qal'a hududida bitta avtoturargoh, 1,5 kilometr salomatlik yo'lakchalari hamda Bulung'ur arig'i ustiga ko'priklar qurildi.

Ta'kidlanishicha, joriy yil Madaniy meros agentligi tomonidan Xo'ja Hofiz Merosiy maqbarasi hamda Sheroz qal'a majmuasida qurilish-ta'mirlash va tadqiqot ishlarini olib borish maqsadida 14 milliard so'm mablag' ajratilgan va amaliy ishlar boshlanishi rejalashtirilgan.

F.RO'ZIBOYEV.

Bahorgi mavsumda viloyatda 10,2 million tup ko'chat ekiladi

Prezidentimiz tashabbusi bilan bir necha yildan buyon "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Dastur doirasida respublikamiz bo'yab yiliga 200 million tupdan ortiq mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekiladi. Ko'chat ekishda yer unumdorligi, sug'orish tizimi yaratilishi, belgilangan agroteknik tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishi, iqlim sharoitidan kelib chiqib, mos daraxt navlari tanlanishi ham katta ahamiyatga ega.

Shu bois O'zbekiston Ekologik partiyasi viloyat kengashi tomonidan ko'chatlarning optimal muddatlarda, qulay hududlarga ekilishi yuzasidan targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda.

Joriy yilda yurtimizni obod va ko'rkam maskanga aylantirish yuzasidan ko'chatlarni ob-havoning qulay muddatlarida, optimal davrda ekish, tuproq unumdorligiga e'tibor qaratish, ularni parvarishlash tizimi barpo etilishiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida bahorgi ko'chat ekish mavsumida viloyat bo'yicha 10 million 208 ming tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekilishi rejalashtirildi. Shu maqsadda partiya viloyat kengashi va hududiy partiya tashkilotlari qoshida partiya faollari, deputatlar, qishloq xo'jaligi xodimlaridan iborat targ'ibotchilar guruhlari shakllantirildi. Ular joylar-



da jamoatchilik vakillari, dehqon, fermer xo'jaliklari boshliqlari, ko'chat yetishtirish bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik subyektlari ishtirokida targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda.

Shunday tadbirlardan biri Samarqand tumani partiya tashkiloti tomonidan tashkillahtirildi. Unda, akademik Mahmud Mirzayev nomli bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand filiali ilmiy-tajriba stansiyasi tomonidan yetishtirilgan 250 ming tupdan ortiq mevali, 200 ming tupdan ziyod uzum ko'chatlarining sifatini, navlari mutaxassislar tomonidan ko'zdan kechirildi.

O'zbekiston Ekologik partiyasining viloyat kengashi tashabbusi bilan joriy yilda "Bir yoshga bitta daraxt" aksiyasini o'tkazish ham mo'ljallanmoqda.

Xo'jaqul MUHAMMADIYEV,
O'zbekiston Ekologik partiyasi viloyat kengashi raisi.

"SAMARQAND SUV TA'MINOTI"

AKSIYADORLIK JAMIYATI JAMOASI

yurtimiz ahlini

NAVRO'ZI OLAM

bilan tabriklaydi!



Xizmatlar litsenziyalangan.

"SIYOB DEHQON BOZORI"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

barcha samarqandliklarni

NAVRO'Z

bilan qutlaydi!



Sharqona
yangi yil
qut-barakali
bo'lsin!

O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARI KASABA UYUSHMALARI VILOYAT KENGASHI

aziz yurtdoshlarimizni

NAVRO'Z

bayrami bilan muborakbod
etadi!



O'zbekiston Sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasining viloyat kengashida 2024-yilda 51 ta boshlang'ich tashkilot 89 ming 488 nafar a'zoni birlashtirgan bo'lsa, 2025-yil yanvar holatida boshlang'ich tashkilotlar soni 61 taga, a'zolar esa 100 ming 264 nafarga yetdi. Ularning 68 ming 401 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi. Ayni paytda barcha boshlang'ich tashkilotlarda hisobot saylov yig'ilishlari o'tkazilmoqda.



Viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi va Nurobod tumani yo'llardan foydalanish korxonasi

hamyurtlarimizni
yangilanish va
yasharish bayrami –

Navro'zi olam

bilan tabriklaydi!



"BO'STON TRAVEL"

SAYYOHLIK KOMPANIYASI



Yangilanish va yasharish ayyomi –

Navro'z

muborak bo'lsin!

KOMPANIYAMIZ QUIYDAGI XIZMATLARNI TAQDIM ETADI:

- O'zbekistonning barcha tarixiy shaharlari, jumladan, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon shaharlariga sayohat;
- O'zbekistonning tog'li dam olish oromgohlari – "Piramida", "Bildirsoy", "Amirsoy", "Layner", "Park Avenyu", "Zomin", "Omonqo'ton" va boshqa maskanlarga sayohat;
- jahon mamlakatlariga sayohat.

Sayohat davomida eng zamonaviy transportlar, mehmonxonalar, oshxonalar va malakali gid-ekskursovdorlar xizmat ko'rsatadi. Bizning sayohat dasturlarimiz sizning talablaringizga mos holda tashkil etilishi va o'zgartirilishi mumkin.

35 va undan ortiq sayohatchidan iborat guruhlar uchun chegirma va bonuslar berilishini ham eslatib o'tamiz.

BIZ BILAN BOG'LANISH:

Telefonlar: +99893-356-90-08, +99893-757-43-21.

Telegram: https://t.me/boston_travel_uzInstagram: http://instagram.com/boston_travel_uzFacebook: <http://www.facebook.com/boston.travel.uz>

Biz Sizga xizmat ko'rsatishdan mamnunmiz!



Xizmatlar litsenziyalangan.

TA'LIM VA FAN XODIMLARI KASABA UYUSHMASI SAMARQAND SHAHAR BO'LINMASI KENGASHI

"Qadriyatlaring boqiy bo'lsin, Navro'z!" shiori ostida o'tkazilayotgan Navro'z bayrami bilan yurtdoshlarimizni tabriklaydi.



Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Samarqand shahar bo'linmasi kengashi bugun 245 ta boshlang'ich tashkilotda 15 ming 894 nafar a'zoni birlashtirgan. A'zolarning 12 ming 783 nafarini xotin-qizlar, 3 ming 679 nafarini yoshlar tashkil etadi. Hozirda barcha boshlang'ich tashkilotlarimizda hisobot saylov yig'ilishlari o'tkazilmoqda.



O'ZBEKISTON DAVLAT MUASSASALARI VA JAMOAT XIZMATI XODIMLARI KASABA UYUSHMASI VILOYAT KENGASHI

barcha yurtdoshlarimizni yangilanish va yasharish ayyomi bo'lgan

NAVRO'Z

bayrami bilan qutlaydi!



Tarmoq kasaba uyushma kengashi 310 ta boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotlarining 44 ming 897 nafar a'zolari manfaatlarini himoyalab kelmoqda. Shundan 10 ming 354 nafarini ayollar va 13 ming 542 nafarini 30 yoshgacha bo'lgan xodimlar tashkil etadi. Hozirda boshlang'ich tashkilotlarimiz hisobot saylov yig'ilishlarida o'tgan besh yillik faoliyat sarhisob qilinmoqda.



Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilganini barchamiz yaxshi bilamiz. 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" da ham har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay mehnat sharoitlari va ishsizlikdan himoyalash huquqiga, o'z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalarini tuzish va ularga qo'shilish huquqiga egaligi belgilab qo'yilgan.

Bu huquq dunyodagi deyarli barcha demokratik davlatlar Konstitutsiyasi va qonunlarida qayd etilgan. Uni amalga oshirishga tegishli davlat organlari bilan birga kasaba uyushmalari ham faol ishtirok etadi.

O'zbekiston kasaba uyushmalarining tarixi 1905-yildan boshlanadi. Lekin 1991-yilgacha, ya'ni O'zbekiston mustaqillikka erishguncha Butunittifoq kasaba uyushmalari markaziy kengashi tarkibida bo'lgan.

Ayni paytda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 13 ta tarmoq kasaba uyushmasi hamda 14 ta hududiy kengashlari faoliyat ko'rsatmoqda. Keyingi yillarda Federatsiya faoliyati takomillashtirish barobarida jamiyat hayotida kasaba uyushmalari tashkilotlarining o'rni va roli ham oshdi. Yurtimizda 11-noyabr – O'zbekiston kasaba uyushmalari xodimlari kuni deb belgilandi.

Davlatimiz rahbari 2022-yil 11-noyabrda O'zbekiston kasaba uyushmalari xodimlari va a'zolariga yo'llagan tabrigida hozirgi kun-

Universitet hayotida kasaba uyushmalarining o'z o'rnini bor

da kasaba uyushmalarining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni tobora mustahkamlanib borayotganini qayd etib, bu tashkilotning xalq ichiga chuqur kirib borayotganligi, insonlar og'irini yengil qilish, el-yurt oldidagi vazifalarini aniq belgilab olganida ekanligini alohida ta'kidladi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2 ming nafarga yaqin professor-o'qituvchi va xodimlari hamda 16 mingdan ortiq talabalarini ijtimoiy muho-faza qilish, ularning huquq va manfaatlarini himoyalashda boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitamisining o'z munosib o'rnini bor. Qo'mita O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi tomonidan belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar hamda universitet ma'muriyati bilan tuzilgan jamoa shartnomasi va kelishuvlar asosida faoliyat yuritmoqda. Bunda asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, Hukumat qarorlari asosida kasaba uyushmasi a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini himoya qilish, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilash, mehnatni tashkil qilish va mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish, stipendiya hamda nafaqalar ta'minotiga qaratilmoqda. Bu boradagi kichik kamchilik ham universitet ma'muriyati bilan birgalikda qisqa fursatda hal etilib, xodimlar va talabalar manfaatli ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Xodimlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish maqsadida jismoniy tarbiya va sport sohasida to'garak va seksiyalar faoliyati yo'lga qo'yilgan, xodimlar va tala-



balar o'rtasida sport musobaqalari o'tkazish muntazamlik kasb etgan. Buning uchun universitet sport klubi zarur sport jihozlari va vositalari bilan ta'minlangan. Jumladan, universitet professor-o'qituvchilari va xodimlari besh sport turi bo'yicha "Sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish" dasturi asosida sport musobaqalarida qatnashib kelmoqda. Ana shu e'tibor natijasida jamoalarimiz Samarqanddagi korxonalar va tashkilotlar, oliy

o'quv yurtlari jamoalari o'rtasida o'tkaziladigan musobaqalar, viloyatdagi sport tadbirlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, yuqori natijalarga erishmoqda. Va albatta, ular kasaba uyushmalari tomonidan munosib rag'batlantiriladi.

Universitetda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar yoki talabalar orasida nogironligi bo'lgan, ko'p farzandli, kam ta'minlangan va iqtisodiy ko'makka muhtojlari ham bor, albatta. Qo'mitamiz tomonidan ularga

birinchi navbatda ijtimoiy-moddiy ko'mak ko'rsatilib, turmush sharoitini yaxshilash, salomatligini tiklashga yordam beramiz. Shuningdek, universitet Nuroniylar kengashi bilan hamkorlikda nafaqadagi xodimlar holidan doimiy ravishda xabar olinadi.

Mehnat qilgan xodim yaxshi hordiq chiqarishi ham kerak. Shuning uchun xodimlar va talabalar uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, yurtimiz bo'ylab sayohatlar uyushtirish va kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriylarga yo'llanma berish faoliyatimizning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Universitet professor-o'qituvchilari va xodimlar, ularning oila a'zolari uchun yil davomida respublikamizdagi "Zomin", "Turon", "Chinobod", "Bo'ston", "Botanika", "Chimyon", "Oqtosh", "Chortoq", "Abu Ali Ibn Sino" va boshqa sihatgohlariga yo'llanmalar beriladi. Ayni paytda pensiyada bo'lgan faxriylarimiz ham bu e'tibordan chetda emas. Ularga universitet hamda boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan bepul yo'llanmalar ham berilmoqda.

Yo'zgi ta'lim paytida esa universitetda ishlovchi professor-o'qituvchilar va xodimlarning farzandlariga boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi hisoblan bolalar sog'lomlashtirish oromgohlariga yo'llanmalar ajratiladi.

Bugun yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari orasida boy tarix va yuqori ilmiy salohiyatga ega Samarqand davlat universitetidagi bir qator tuzilma va kengashlar orasida boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasining o'rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Professor-o'qituvchilar va xodimlar, talabalar esa kasaba uyushmalari jamiyatdagi o'rni qanchalik muhimligini o'z hayotlari, faoliyatlari misolida ko'rib, his qilib turibdilar.

Shavkat MAHMATMURODOV, Samarqand davlat universiteti boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raisi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

"Mikrokreditbank" ATB Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi bank boshqaruvining 2025-yil 28-fevraldagi 35-3-sonli "Samarasiz faoliyat yuritayotgan ayrim bank xizmatlari markazlari faoliyatini to'liq tugatish to'g'risida"gi qaroriga asosan Samarqand viloyati Samarqand tumani "Xo'ja Axror Vali" MFY-2, Ozodlik ko'chasi, 93-uy manzilida joylashgan "Afrosiyob" bank xizmatlari markazining faoliyati tugatilganligini ma'lum qiladi.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun quyidagi manzila murojaat etishingiz mumkin: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 15/17-uy. Telefon: +99866-231-01-71.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasida marhum Muxtarov Maxmudga (2020-yil 28-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Xo'ja Ahror Valiy mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xasanov Ilxom Axmadovichga (2024-yil 14-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshbaltayevich notarial idorasida marhum Yakubov Lenurga (2024-yil 5-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshbaltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasida marhum Murnayeva Mariya Ivanovna (2023-yil 24-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Xoljigitov Yoqub Pulatovichga (2021-yil 2-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Kulmirzayev Abduganiga (2014-yil 25-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Ro'ziqulov Mamarajabga (2023-yil 9-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Achilov Gulyamga (2008-yil 1-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasida marhum Xasanov Normamat Ishmuradovichga (2024-yil 25-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum G'affarova Minavarga (2024-yil 23-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Satayev Xo'razga (2024-yil 3-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Gusarova Fatima Nurullayevna (2025-yil 17-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Niyazkulov Imomqul Umarqulovichga (2021-yil 23-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 3-uy, 35-xona.

"JUMA ELEVATORI" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"Juma elevatori" aksiyadorlik jamiyati jamiyat aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig'ilishi 2025-yil 15-aprel kuni (haftaning seshanba kuni) soat 10:00 da Samarqand viloyati Past Darg'om tumani Juma shahri, Fitrat ko'chasi, 2-uy manzilida joylashgan "Juma elevatori" aksiyadorlik jamiyati ma'muriy binosi majlislar zalida o'tkazilishini ma'lum qiladi.

Jamiyat aksiyadorlarining 2024-yil yakuni bo'yicha yillik umumiy yig'ilishi kun tartibida quyidagi masalalar muhokama qilinadi: UMUMIY YIG'ILISH KUN TARTIBI:

1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining sanoq komissiyasi va ishchi prezidumi a'zolarini saylash.
2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibi va reglamentini tasdiqlash.
3. Jamiyat kuzatuv kengashining 2024-yilda bajarilgan ishlari bo'yicha hisoboti.
4. Jamiyatning 2024-yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti. Unda, 2024-yilning asosiy natijalari hamda 2025-yilda amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar to'g'risida boshqaruv raisining hisoboti eshitiladi.
5. 2024-yil uchun jamiyatning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotini hamda xalqaro audit standartlariga muvofiq 2024-yil uchun o'tkazilgan audit tekshirish natijalarini ko'rib chiqish.
6. O'zbekiston Respublikasi Prizedentining 2019-yil 24-avgustdagi PQ-4426-sonli qarori talablariga muvofiq, jamiyat boshqaruv raisining ishlab chiqarish, mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hamda axborot texnologiyalari masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosarining 2024-yil yakunlari bo'yicha hisoboti.
7. Jamiyatda 2024-yil yakunlari bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilot xulosasini ko'rib chiqish.
8. Jamiyatning 2024-yil yakunlari bo'yicha sof foydasini taqsimlash.
9. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari va kotibini saylash hamda ish haqini belgilash.
10. Jamiyat boshqaruv a'zolarini qayta saylash va ish haqini belgilash.
11. Jamiyatning 2025-yilgi moliyaviy faoliyatini majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun

auditorlik tashkilotini belgilash.

12. "Korxonada xaridlar jarayonining shafqatli, asosilligi, shu jumladan, mahalliy mahsulotlarning sifat va narx bo'yicha belgilangan parametrlarga muvofiqiligini hisobga olgan holda import xaridlarini, shuningdek, valyuta resurslaridan samarali foydalanilishi to'g'risida"gi tashqi audit xulosasini tasdiqlash.

13. Jamiyatning yangi tahrirdagi nizomi va kooperativ boshqaruv nizomlarini tasdiqlash.

14. Jamiyatning 2025-yil uchun mo'ljallangan "Bisnes rejasi"ni tasdiqlash.

Aksiyadorlarni ro'yxatga olish 2025-yil 15-aprel kuni soat 8-00 dan 10-00 ga qadar davom etadi.

Yig'ilishga aksiyadorlar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari, ularning vakillari esa amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchnomalar bilan kelishlari so'raladi.

Murojaat uchun telefon: +99866-465-15-27.

Jamiyatning elektron pochta manzili: jumadon@mail.ru

Hurmatli aksiyadorlar!

Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi axborot va boshqa ma'lumotlarni jamiyat aksiyadorlariga sifatli va tezkor ravishda yetkazilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq elektron pochta orqali amalga oshirilishini inobatga olib, sizdan elektron pochta manzilingizni (E-mail) taqdim etishingiz lozimligini ma'lum qilamiz.

JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.

BEKOR QILINADI

Sotuvchi Nomirov Sherzod Xolmurotovich va sotib oluvchi "BIBIXONIM NUR BARAKA" MCHJ direktori A. Nomirovlar o'rtasida Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-"B" uy manzilida joylashgan dorixona, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish binosi uchun "SAMARKAND DILLER RIELTOR SERVICE" MCHJ vositachiligida 2024-yil 25-noyabrda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 321-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnomasi asosida 2024-yil 25-noyabrda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi hamda topshirish-qabul qilish dalolatnomasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi (sobiq Samarqand tayanch tibbiyot kolleji) jamoasi kollej sobiq direktori **Yaxshinor ALLAYOROV**ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.

SO'ZGA SIG'MAS BO'LDI SHARAFING, SHONING...

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonda).

Eng asosiysi, viloyatdagi 16 ta tuman (shahar) va 1126 ta mahallaning har birini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularni kambag'allik, ishsizlik va jinoyatdan xoli hududga aylantirish, «Obod mahalla — obod ko'cha — obod xonadon» mezonlarini hayotga tatbiq etish ishlari aniq dastur hamda mablag' bilan ta'minlangan holda amalga oshirilmoqdaki, bu ko'zlangan natijaga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Muhimi, barcha sohada Prezidentimiz belgilab bergan vazifalar viloyatning rivojlanish strategiyasi o'laroq samarqandliklarni bir maqsad yo'lida jipslashtirib, ularni olg'a harakatlantirmoqda. Bu viloyat yaqin istiqbolda yuksalishning yangi pog'onasiga ko'tarilishiga zamin yaratadi.

ZIYORATCHILAR TALPINADIGAN MASKAN

Bugun butun dunyo bo'z va betakror manzilga talpinmoqda, desak, sira mubolag'a bo'lmaydi. Haqli savol tug'iladi: nima uchun jahonning turli burchagidan odamlar Samarqandga kelishga, oldin kelganlar uni yana ko'rmoqlikka orzumand?

Buning qator omillari bor. Avvalo, sal ilgariroq aytib o'tilganidek, bu yerdagidek tarixiy obidalar olamdagi kamdan-kam davlatlardagina bor. Ammo hozirgi zamonaviy dunyoda buning o'zi kamil qiladi. Unda, sabab nimada?

Nazarimizda, oxirgi yillarda Samarqandda ro'yobga chiqarilayotgan keng ko'lamlil binyodkorliklar, ya'ni sayyohlarga yaratib berilayotgan shart-sharoit va qulayliklar muhim omillardan biri, desak, ayni haqiqat.

Bilasiz, hozirgi zamonaviy dunyoda aeroport va temir yo'l vokzali har bir hududning o'ziga xos «darvozasi» sanaladi. Bu «darvoza» qanchalik orasta va ohanraboli bo'lsa, sayyohlar oqimi shunga mos bo'ladi.

Samarqand aeroportini ko'z oldimizga keltirib ko'raylik. Yuqoridan qarasangiz, u ochiq turgan kitobni yodga soladi. Binyodkorlar bu bilan nimani ko'zladiki ekan?

To'g'ri topdingiz, bu, avvalo, Samarqand dunyodagi barcha insonlarga ochiqligini, unga tashrif buyurganlar bir olam ma'lumot va taassurotlarga ega bo'lishini, agar ko'rgan-kechirganlarini bitishni niyat qilishsa, u katta kitobga aylanishini bildiradi. Biz shunga qo'shimcha sifatida O'zbekistonda olib borilayotgan ochiqlik siyosatining o'ziga xos ifodasi, degan bo'lardik.

Samarqand temir yo'l vokzali va unga olib keluvchi «uchar tulporlar» haqida ham shu singari fikrlarni bildirish mumkin.

Tasavvur qiling: Toshkentdan qadim kentga qarab yo'lga tushdingiz. O'sha «uchar tulporlar» sizni yoki xorijlik sayyohni qisqa fursatda tarixiy go'shaga eltadi. Davomi ma'lum: har qanday chet ellik o'zini betakror etqalar olamida ko'radi.



Xorijiy sayyohlarni yanada kengroq jalb etish maqsadida Samarqandda keng ko'lamlil binyodkorlik ishlari olib borilayotganini yana bir bor aytib o'tish joiz. Keyingi yillarda qadim obidalar, madrasayu masjidlar, xonaqohu maqbaralar va boshqa noyob me'morchilik yodgorliklari qayta ta'mirlandi. Jumladan, Registon maydoni, Shohi Zinda, Hazrati Xizr, Ruhobod, Dahbed, Nodir devonbegi ziyoratgohlari, Bibixonim jome masjidi, Ulug'bek rasadxonasi, Xoja Duniyol, Xo'ja Ahror Valiy, Moturidiy, Amir Temur maqbaralari tarixiy qiyofasiga uyg'un ravishda qayta ta'mirdan chiqarildi.

Islom olamining tabarruk ziyoratgohlaridan biri bo'lgan mo'tabar qadamjo — Imom Buxoriy majmuasi butunlay yangi qiyofa kasb etayotir.

Hadis ilmining sultonli sifatida dunyoda nom qozongan Imom Buxoriy bobomiz musulmon olamining faxri hisoblanadi. Buyuk muhaddisning Samarqanddagi tabarruk qabrini ziyorat qilish uchun har yili yurtimizga dunyoning turli burchaklaridan minglab musulmonlar keladi.

Shu bois bu yerda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2019 yilda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi hamda Hadis ilmi maktabi tashkil etildi. Undan keyin ushbu ziyoratgohda Imom Buxoriy majmuasini qaytadan barpo qilish maqsadida yangi

loyiha bo'yicha rekonstruksiya ishlari boshlandi. Bu yerda qariyb 10 ming namozxonaga mo'ljallangan masjid, to'rtta minora, ayvonlar barpo etildi.

Davlatimiz rahbari bir necha bor Imom Buxoriy majmuasida amalga oshirilayotgan binyodkorlik ishlarni ko'zdan kechirdi. Inshootlarni bezash, hududni obodonlashtirish, ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar hozirlash bo'yicha mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

Endilikda bu yerga kelgan mehmonlar yer osti galereyasi orqali Imom Buxoriy qabrini ziyorat qilish imkoniga ega bo'ladi. Obida devorlari milliy naqshlar, pardozeb toshlar bilan sayqallab chiqildi. Majmuadagi olti asrlik qadimiy chinorlar, qaynab chiqayotgan buloq va hovuz avvalgi holicha saqlab qolindi. Ikki gektardan ziyod maydon ko'kalamzorlashtirildi, uning atrofida xiyobon, mehmonxonalar, ikki yonida madaniy-maishiy inshootlar barpo etildi.

Hozirgi paytda majmuaga ziyoratga kelgan mehmonlar uning mahobati va salobatidan hayratga tushadi. Qalbida faxr-iftixor tuyg'usini his qiladi.

Yangi surat va siyrat kasb etgan Imom Buxoriy majmuasining joriy yilda qayta foydalanishga topshirilishi Samarqandda ziyorat turizmi imkoniyatlari yanada kengayishiga hissa qo'shadi.



YANGI O'ZBEKISTONNING TURIZM DARVOZASI

Samarqand Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan «Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi»ga aylantirilmoqda. Ana shu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilgan megaloyihalardan biri — davlatimiz rahbari Qoyasi va tashabbusi asosida binyod etilgan «Buyuk Ipak yo'li» xalqaro turizm markazidir.

Bu muhtasham majmu nafaqat Samarqandning yangi qiyofasini belgilab, turizm imkoniyatlarini yangi bosqichga ko'tardi, balki xalqimizning yuksak aql-zakovati, ulkan binyodkorlik salohiyati va fidokorona mehnati mahsuli sifatida Vatanimiz tarixidan joy oldi.

«Buyuk Ipak yo'li» xalqaro turizm markazi yiliga 2 million sayyohga xizmat qiladigan ko'p tarmoqli majmuadir. Markaz tarkibida «Boqiy shahar» majmuasi, Kongress-xoll, 8 ta zamonaviy mehmonxona, amfiteatr va ko'plab boshqa ob'ektlar mavjud.

Ulug'vor va zamonaviy me'moriy ansambli qadimiy hamda navqiron kentning shonli o'tmishdagi asl o'rnini qayta tiklashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qisqa fursatda majmuada dunyo siyosatchilari maslahatlashadigan, oliy darajadagi uchrashuvlar o'tkaziladigan oshyonga aylandi. Masalan, keyingi ikki yilda bu yerda yigirmadan ortiq xalqaro maqomdagi tadbirlar tashkil etildi. Shanxay hamkorlik tashkiloti sammiti, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar rahbarlari uchrashuvi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki boshqaruv kengashining yillik yig'ilishi hamda Jahon turizm tashkilotining Bosh assambleyasi o'tkazildi. Ushbu nufuzli tadbirlarga kelgan minglab mehmonlar O'zbekistonning qadamlari, bugungi hayoti bilan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Xususan, ular Samarqandni diqqatga sazovor joylarini ko'zdan kechirib, Yer yuzida shunday jannatmonand o'lka borligini yakdillik bilan e'tirof etishdi.

Davlatimiz rahbarining 2024 yil 29 noyabrdagi «Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»-gi qarorida hududda turizmni rivojlantirish bo'yicha qator vazifalar belgilangan. Jumladan, joriy yilda Urgut, Toyloq, Samarqand, Pasterdarg'om tumanlari va Samarqand shahri hududidan o'tgan Darg'om kanali bo'yida 35,7 kilometr masofada ko'ngil-ochar savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlaridan iborat turistik marshrut tashkil etiladi.

Shuningdek, viloyat miqyosida turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan o'nlab loyihalar, tadbirlar hayotga tatbiq qilinadi. Masalan, Konigil va Tersak mahallalari tajribasi asosida tumanlardagi 14 ta hududga «turizm qishlog'i» maqomi berilishi ko'zda tutilmoqda.

Shunga mos holda tashkil etiladigan mehmon uylari, xostel, kemping, o'tovlar, havo sharlari, paraplan, osma dor yo'li singari zamonaviy turistik xizmatlar, gastronomik maskanlar, savdo nuqtalari hisobiga ikki mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan. Shu asosda Samarqand shahri va qator tumanlarda hudud sharoiti hamda geografik joylashuidan kelib chiqqilgan holda turli yo'nalishlardagi xalqaro festivallar o'tkaziladi.

Narpay kanalining Kattaqo'rg'on shahri hududidan o'tgan qismida investorlar tomonidan yengil konstruksiyali savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini o'zida jamlagan gastronomik ko'priklarni majmuasi quriladi. Shuningdek, 2026-yilga borib Urgut tumanining Chorchinor tog'li hududida qiymati 25 mln. dollar bo'lgan zamonaviy dor yo'li va turizm majmuasi qurilib, ishga tushiriladi.

Joriy yil kuzda Samarqandda YUNESKO Bosh assambleyasining 43-sessiyasi o'tkaziladi. Ushbu oliy darajadagi anjumanga dunyoning yuzdan ortiq davlatlaridan 6 mingdan ko'proq ishtirokchilar kelishi kutilmoqda.

E'tiborli tomoni shundaki, ushbu nufuzli tadbir shu vaqtga qadar Parijdan boshqa shaharda o'tkazilmagan. Shu nuqtai nazardan, YUNESKO Bosh assambleyasi sessiyasining Samarqandda tashkil etilishi tarixiy voqeelik bo'lib, ko'hna va navqiron kent sayyohlik salohiyatining yana bir xalqaro e'tirofidir.

UYG'ONING VA UYG'OTING

Qadimdan ta'lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat, ma'rifat beshigi bo'lib kelgan Samarqand bugun mamlakatimizda ushbu sohalariga qaratilayotgan e'tibordan kelib chiqqan holda azaliy o'rnini, tarixiy mavqei qayta tiklashi kerak.

Viloyatda hozirgi kunda zamonaviy ta'lim maskanlari, yangi oliyog'lar faoliyati yo'lga qo'yilayotgani rost. Endigi masala — jahon talablariga mos kadrlar tayyorlash, zamonamizning ilg'or fikrli avlodini kamolga yetkazish, madaniy-ma'naviy, badiiy saviya jihatidan viloyatni chinakam lokomotivga aylantirishdir.

Taassufki, viloyatda kitobxonlik, gazetxonlik, adabiyotni yanada rivojlantirish bo'yicha hali qilinadigan ishlar ko'p. Ularni bekamu ko'st amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, ayni sohalariga turli darajadagi rahbarlarning munosabatini o'zgartirish zarur. Badiiy asarlar, gazeta, jurnallar o'qishda, avvalo, rahbarlar o'zlarini faollik ko'rsatishi, boshqalarga o'rnak bo'lishi hamda ularning targ'ibotini yanada kuchaytirishi lozim. Mutolaa madaniyatini yuksaltirish bo'yicha Samarqand tajribasi yaratilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

Zotan, bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan hayotbaxsh islohotlardan o'z vaqtida xabardor bo'lish, ularning o'zak mag'zini chuqur tushunish va ijrosiga sidqidildan hissa qo'shish, qalblarda el-yurt taqdiriga daxldorlik, kuyunchaklik, azmu shijoat, muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalash, shubhasiz, kitobxonlik, gazetxonlik bilan birgalikda kechadi. Mutolaa insonni komillik sari eltuvchi eng to'g'ri va samarali yo'ldir.

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari kitob o'qish va uning targ'ibotida hamma ga namuna bo'lib kelyapti. Prezidentimiz xorijiy davlatlar rahbarlariga kitob sovg'a qilishni an'anaga aylantirgan. Ta'lim, ilm-fan, madaniyat, adabiyot masalalari yuzasidan o'tkazgan yig'ilishlarida, yurtimiz ziyolilari, yoshlar bilan uchrashuvlarida kitob va matbuot nashrlari mutolaa-si muhimligini, ular targ'ibotini yanada kuchaytirish lozimligini bot-bot ta'kidlaydi.

Bundan har bir yurtodoshimiz, ayniqsa, mutasaddilar zarur xulosalar chiqarishi, faoliyatiga ana shu mezon asosida baho berishi, gapning sirasini aytganda, qalban, ruhan uyg'unlashi va boshqalarni ham uyg'otishga intilishi shart. Sohani yanada rivojlantirish borasida qabul qilingan qaror va farmoyishlar, berilgan topshiriq va ko'rsatmalar ijrosini ta'minlash butun mamlakatimiz hududlari qatori Samarqand viloyatida ham bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lishi kerak. Binobarin, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, kitob o'qigan, o'zining ustida ishlagan odamda qanot bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimida bo'ladi.

Samarqandda kitobxonlar, gazetxonlar, bilimli, ilmi insonlar yanada ko'paysa, viloyat yanada taraqqiy etadi, gublab-yashnaydi.

Bugun O'zbekistonda yangi bir uyg'unlash, bahoriy yangilanishlar nafasi kezmoqda. Yuqorida aytganimizdek, Samarqandda ham bahor allaqachon o'z sepinii yoyib, mo'jizaviy qudratini namoyon etmoqda. Ishonchimiz komilki, bu yerdagi o'sish, o'zgarish boshqa hududlaridan butunlay boshqacha, o'ziga xos va azaliy mavqei ga mos bo'ladi. Samarqand bahori hali husnu malohatini, latofatini, seheru jozibasini yanada to'liqroq, yanada ravshanroq, yanada mukammalroq ko'rsatib, barchani ortidan ergashtiradi.

Holbuki, kelajak poydevoriga tamal toshini qo'yg'an uchinchi Renessans bizni bir maqsad yo'lida jipslashtirishdan tashqari, kelajakka ishonchimizni yanada mustahkamladi, yangi kunni umid bilan kutib olishga ruhlantirdi. Ishonch bo'lgan joyda muvaffaqiyatlar, yutuqlar bardavom bo'ladi. O'rta asrlarda dunyo hamjamiyati tomonidan Amir Temur bobomiz va uning saltanati poytaxti — Samarqand Yevropaning xaloskori sifatida nom qozongan bo'lsa, bugungi kunda Prezidentimiz sa'y-harakati bilan dunyo madaniy poytaxti, oliy darajadagi masalalar muhokama etiladigan xalqaro minbarga aylanoqda.

Temurbek boshlagan boqiy mashvarat, So'nmas ezgulikning baxti, shukuhi. Hilpirar to'vulik bayrog'i abad, Tamal toshi erur Samarqand ruhi. Bu zamin ruhidan kuch olib yana Kundan-kunga sayqal topmoqda jahon. Ezgulik har yerda qilar tantana, Har kimning iqboli bo'lar nurafshon. So'zga sig'mas bo'ldi sharafing, shoning, Go'zalsan, ko'rkamsan ta'rifi monand. Sen, axir, ulug' yurt — O'zbekistonning Boshiga tojdirsan, mangu Samarqand!

O'tkir RAHMAT, «Xalq so'zi» gazetasi bosh muharriri.



Qadriyatlarining boqiy bo'lsin, Navro'z!

Navro'z bizni qo'shni mamlakatlar xalqlari bilan tarixiy birligimizni ham namoyon etadi. U ikki ma'noga ko'ra xalqaro bayramlar sirasiga kiradi. To'rt ming yildan buyon Markaziy Osiyo, Eron, Afg'oniston, Kavkazorti mamlakatlari xalqlarining bahorni qarshi olish bayrami sifatida nishonlab kelinadi. 2009-yili Navro'z YUNESKOning Insoniyat nomodiy madaniy merosi ro'yxatidan joy oldi. 2010-yil BMT Bosh assambleyasining 64-sessiyasida «Navro'z xalqaro kuni» rezolyutsiyasi qabul qilindi.

2013 yil BMTning Nyu-Yorkdagi qarorgohida O'zbekiston Respublikasining BMT huzuridagi doimiy vakolatxonasi tashabbusi bilan Navro'z bayrami tantanali nishonlandi. Shu tariqa Navro'z jahon miqyosida tan olina boshlaydi.

Navro'z asrlar davomida shakllangan an'ana va qadriyatlarini saqlash, kelajak avlodga yetkazishga katta hissa qo'shadi. Bu orqali avlodlar o'rtasida o'ziga xos «muloqot» shakllanadi. Yana bir muhim jihati shundaki, o'tgan yillar davomida ushbu bayram millati, dini, urf-odatidan qat'i nazar, mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elatlarga mansub barcha vatandoshlarimiz uchun umumxalq bayramiga aylandi. Bu esa mamlakatimizda o'zaro hamjihatlik, turli millatlar vakillari o'rtasidagi do'stlik, bag'rikenglik munosabatlarni mustahkamlab, ularni bir-biriga yanada yaqinlashtiradi, jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Bu yilgi Navro'z umumxalq bayrami mamlakatimizda «Qadriyatlarining boqiy bo'lsin, Navro'z!» degan bosh g'oya asosida umumxalq sayillari shaklida keng nishonlanmoqda.

«Yashil makon» umummilliy loyihasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, bayram arafasida barcha hududlarda, ko'cha, mahalla, tuman va shaharlarda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish aksiyalari, umumxalq hasharlarini o'tkazilyapti.

Universitetimizda ham umumxalq hasharlarini, keng qamrovli obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish ishlari tashkil etildi.

Aytish joizki, bugungi globallashtirish davrida insoniyatni ekologik muammolar qiynayapti. Yashil tabiatni asrab qolish uchun avvalo, uni qat'iy himoya qilish, tabiatga zarar yetkazuvchi turli qonunbuzarliklarning oldini olish choralarini ko'rilishi lozim. Aks holda, har qanday ko'kalamzorlashtirish, o'rmonzorlashtirish ishlari foyda bermaydi.

Universitetimizda «Yashil makon» loyihasi doirasida ko'chat ekish ishlari qizg'in pallada. Ko'chat ekish dasturiga muvofiq universitet hududida 850 tup manzarali, mevali daraxt va buta ko'chatlari ekildi.

Demochimanki, insoniyat oldidagi dolzarb vazifalardan biri atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, flora va fauna olamini asrab-avaylash, global ekologik inqirozga yo'l qo'ymaslikdir.

Asrlar osha Navro'z hayot abadiylikni, tabiatning yasharish, yangilanish qudratini, saxovatini, ajdodlarimizning o'limas merosi bo'lgan urf-odatlarimizni, qadriyatlarimizni namoyon etuvchi bayram sifatida yashab kelaveradi. Muhimi, unda xalqimizga, millatimizga xos yuksak insoniylik, mehr-muruvvat, saxovatpeshalik va bag'rikenglik kabi qadriyatlar mujassam.

Xudoynazar YUNUSOV, Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, professor.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 608 nusxada chop etildi. Buyurtma 136. Hajmi 3 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda